https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti

Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi

PIRIMQUL QODIROVNING FRAZEOLOGIK IFODALARDAN FOYDALANISH USLUBI

(“Yulduzli tunlar” romani misolida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning frazeologizmlardan foydalanish mahorati “Yulduzli tunlar” romanidagi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, frazeologizm, inson kechinmalari, kontekst, fraza.

Annotation: This article explores Pirimqul Qodirov’s mastery in using phraseological units, illustrated through examples from the novel *Yulduzli tunlar*.

Keywords: Historical novel, phraseological unit, human experiences, context, phrase.

Аннотация: В данной статье раскрывается мастерство Пиримкула Кодирова в использовании фразеологизмов на примерах из романа *Yulduzli tunlar*.

Ключевые слова: Исторический роман, фразеологизм, человеческие переживания, контекст, фраза.

Frazeologiya (yunoncha *phrasis* — ifoda, *logos* — ta’limot) — bir nechta mustaqil leksemalarning birikuvidan tashkil topgan, obrazli ma’no kasb etuvchi lisoniy birliklarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Bunday birliklar **frazeologizm** deb yuritiladi. Frazeologiya leksikologiyaning ajralmas bo‘limlaridan biri sanaladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Frazeologizmlar, tildagi **qo‘shma leksemalar** singari, til jamoasi ongida tayyor va barqaror shaklda mavjud bo‘ladi. Ularning aksariyati, ayniqsa, **badiiy va so‘zlashuv nutqida** keng qo‘llanadi [2.129]. Shu sababli, frazeologik birliklarni adabiy asarlarda ham tez-tez uchratish mumkin. Har bir badiiy asar tilda mavjud bo‘lgan muayyan jihatlarni o‘zida ifodalaydi.

Sevimli adibimiz **Pirimqul Qodirov** ijodida ham til birliklari, xususan frazeologizmlar, o‘ziga xos tarzda qo‘llanadi. Uning asarlari ko‘pincha tarixiy yo‘nalishga ega bo‘lib, **“Yulduzli tunlar”** romani ham shular sirasiga kiradi. Asarda **Zahiriddin Muhammad Bobur** hayoti va faoliyati yoritilgan. Muallif kechinmalarni go‘zal shaklda ifodalab, kitobxonni qahramonlar bilan birga o‘sha davr muhitida yashayotgandek his etishga majbur qiladi.

Yozuvchi “**qo‘l qovushtirib turmoq**” (ishsiz, harakatsiz turmoq), “**yuragi uvushmoq**” (ma’yus holatga tushmoq), “**yuragi taka-puka bo‘lmoq**” (qo‘rquv, xavotir holatida bo‘lmoq) kabi iboralar orqali inson kechinmalarini tabiiy va ta’sirchan tarzda ifodalagan. Bu holat uning badiiy til boyligini va frazeologik birliklardan samarali foydalana olganini ko‘rsatadi.

Quyida “Yulduzli tunlar” romanining “Quva. Qil ustida turgan taqdirlar” bo‘limidagi frazeologizmlarga e’tibor qaratamiz. Tohir orqasiga o‘girilib, Quvasoyning pastki tomonlarini ko‘z yugurtdi. Pastda qamishzor bilan botqoqlik va uning ustidan o‘tgan uzun yog‘och ko‘prik ko‘rinardi. Ko‘prikdan chumoliday odamlar, otlar, mollar va aravalar yomg‘ir parda orasida elas-elas ko‘zga chalinardi [1.3]. Shu kontekstda “ko‘z yugurtirmoq” va “ko‘zga chalinmoq” iboralari ishlatilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra:

- **Ko‘z yugurtirmoq** – tezda ko‘rib chiqmoq [4.444].
- **Ko‘zga chalinmoq** – ko‘rinmoq.
- “Ulusning sho‘ri qursin!” – dedi Tohir. “Kasofat podsholar urushmay turolmasa” [1.4].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- **Sho‘ri qursin** – ahvoliga voy, holi xarob [7.12].

Robiya xanjarga qo‘rqa-pisa ko‘z tashladi-da: “Qaydam,” dedi [1.4].

- **Ko‘z tashlamoq** – qaramoq, nazar solmoq [4.444].

Ramazon oyi o‘tgandan keyin ularning to‘ylari bo‘lishi kerak edi. Tohir Robiya bilan tez orada bir yostiqqa bosh qo‘yishlariga ishonib, bexavotir yurardi [1.4].

- **Bir yostiqqa bosh qo‘ymoq** – turmush qurmoq [3.335].
- “Yomon tushmi? Aytishga ham tilim bormaydir. Tushga nelar kirmas!.. Ayt!.. Mayli…” [1.5].
- **Tili bormaslik** – biror narsa deyishga botina olmaslik, ko‘ngli bo‘lmaslik [6.92].

Tohir yomon bir falokatni sezganday yuragi uvushdi: “Shoshilmay gapir” [1.5].

- **Yuragi uvushmoq** – ma’yus, ezgin holatni tuymoq, noxush narsadan o‘zini yomon his qilmoq [6.262].

Non yeb, qatiqli osh ichganlaridan keyin Tohir Andijonga ketish haqida uchini chiqarmoqchi bo‘ldi [1.7].

- **Uchini chiqarmoq** – boshlang‘ich belgilar bilan ma’lumot bermoq, shipshitmoq [6.306].

Mulla Fazliddin so‘nggi gaplardan xavotirlanib, eshik tomonga qaradi. Saroy ahliga yaqinlashib, ayg‘oqchilardan yurak oldirib qo‘yganini Tohir ham sezdi [1.10].

- **Yuragini oldirib qo‘ymoq** – kimningdir yuragini bezillatib qo‘ymoq [8.271].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Iztirobli o‘ylar tufayli mulla Fazliddin kechasi uyqu olmadi. Urushning alg‘ov-dalg‘ovida tobora bo‘yni yo‘g‘on bo‘lib borayotgan bebosh beklar esiga tushgani sari ko‘ngli bezovta bo‘ldi [1.12].

- **Ko‘ngli bezovta bo‘lmoq** – odatdagi tinch holatini yo‘qotmoq, tashvishlanmoq [7.211].

O‘rnidan turganda, Yoqubbek mulla Fazliddinga o‘qrayib ko‘z tikdi: “Lekin men aytgan gap shu yerda qolsin, janob me’mor. Aks holda…” [1.13].

- **Ko‘z tikmoq** – tikilib qaramoq, intizor bo‘lmoq [4.44].

Mulla Fazliddinning yuragi taka-puka bo‘ldi. Nahotki, bu bek po‘lat sandiqdagi suratdan xabardor bo‘lsa [1.13]!

- **Yuragi taka-puka bo‘lmoq** – vahima, qo‘rquv, xavotir holatida bo‘lmoq [7.88].

Qo‘l qovushtirib tikka turgan mulla Fazliddin dorug‘aga yaqinroq keldi [1.15].

- **Qo‘lini qovushtirmoq** – ish qilmasdan qaqqayib turmoq [7.321].
- “Nachora? Hammamizning ham taqdirimiz qil ustida turibdi” [1.18].
- **Qil ustida turmoq** – jiddiy xavf ostida bo‘lmoq, halokat yoqasida bo‘lmoq [6.199].
- “E, bu niyatlar hammasi puchga chiqdi!” – deb Tohir tog‘asidan eshitganlarini aytib berdi [1.19].
- **Puchga chiqmoq** – asossiz bo‘lib chiqmoq, amalga oshmay qolmoq [5.324].

“Podshomiz erta-indin kelib, jonimizga oro kirgay… Mana ko‘rursen!”

- **Joniga oro kirmoq** – halokatdan yoki qiyin ahvoldan saqlab qolmoq, yordam qilmoq [4.103].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Toshkent xoni Mahmudxon Xo‘janddan qarshi qo‘shin tortib kelmoqda emish [1.9].

- **Qo‘shin tortmoq** – qo‘shin bilan yurish qilmoq, bosib bormoq [6.155].

Yilgi ro‘za yoz chillasiga to‘g‘ri kelgan, jazirama kunlarda tongdan kechgacha tuz totmaslik odamlarni qiynar, buning ustiga tashnalik azobi ham qo‘shilardi [1.7].

- **Tuzini totmoq** – aynan tuzini ko‘rmoq, mazasini ko‘rmoq, ta’mini totmoq [6.79].

Shu matn orqali “Yulduzli tunlar” romanidagi frazeologizmlar ilmiy tarzda tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, asarda ularning ko‘pligi, yozuvchi Pirimqul Qodirovning tarixiy va badiiy tafakkurini, til xususiyatlarini ochishdagi mahoratini ko‘rsatadi. Bu frazalar asarning jozibadorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari. 2018.
2. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: 2009.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom. -Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-tom. -Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-tom. -Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-tom. -Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-tom. -Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2020.
8. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi. 1978.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

9. https://arboblar.uz>kadyrov-pirimqul.

10. Umurqulov B. AN ESSENTIAL FEATURE OF ARTISTIK DISCOURSE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 242 246.

11. Умуркулов, Б. "Бадиий адабиётда суз." (1993).

12. Курбаназарова Н. Ш. ЛИСОНИЙ ТИЗИМДА ЭТНОГРАФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТИ (СУРХОНДАРЁ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ МИСОЛИДА) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 4.

13. Эргашева Д. А. ODIL YOQUBOV ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 1.

14. Rakhimova Z. S. ARGO AS A SOCIALLY LIMITED LEXICAL UNIT //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767 3758). – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 146-150.

15. PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ASARIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TALQINI Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi

16. FRAZEMALAR VA ULARNING BADIIY ASARDAGI IFODASI (Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari misolida) O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li, Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi

17. TARIXIY ASARLARDA FRAZEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asari misolida) O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi.